



## TOPISHMOQLARNING O‘RGANILISHI

**Jalolidinova Maftuna Jamoldin qizi,**  
*ToshDO‘TAU tayanch doktaranti*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207485>

*Annotatsiya:* Mazkur ishda topishmoqlarni folklor va tilshunoslikda yevropaliklar, ruslar, o‘zbeklar qay darajada o‘rganganligi va qaysi jihatlariga e‘tibor berganligi haqida atroflicha fikrlar keltirilgan.

*Kalit so‘zlar:* Semantika, topishmoq, metafora, enigmatik, semiotik mexanizm, deyktiklik.

Topishmoqlar xalq og‘zaki ijodi janrlarining eng kichik janri bo‘lib, unda sirlik bor. Hozirgacha avloddan avlodga o‘tib kelayotgan bu jumboq yashiringan matnlar nafaqat bolalarni, balki kattalarni ham topqirlikka chorlaydi, fikrlash doirasini kengaytiradi. Katta-yu kichikni birday qiziqtirgan topishmoqlarni jahon va o‘zbek olimlarining bir qanchasi o‘rganib, tahlil qilgan.

Tarkibida jumboq yashiringan matnlarning ilk bor o‘rganilishi eramizdan bir necha asrlar oldingi davrlarga borib taqaladi. Topishmoqlarning lingvistik xususiyatlarini o‘rganish IV asrdanoq boshlangan bo‘lib, Aristotelning metafora nazariyasi asnosida topishmoqshunoslik ilmi rivojlandi. [3:57]

Qadimgi yunon olimi Arastuning “Poetika” asarida falsafiy qarashlar keltirilgan bo‘lib, unda olim barcha nafis san`atlar ostida o‘xshatish(mimesis) yotishini ta’kidlaydi. U nafis san`atlar deganda badiiy va amaliy san`atlarni tushunadi. San`atlar uch jihatdan farqlanishini aytadi:

1. Tasvirlashning turli vositalari bilan
2. Nima tasvirlanayotgani bilan
3. Rang-barang o‘xshatish usullari bilan

Hayotimiz davomidagi barcha san`atlar tasvirleydilar – o‘xshatadilar, deydi olim. Ya`ni raqqoslar tana harakatlari bilan, musiqachilar kuy bilan, shoirlar esa vazn bilan o‘xshatadilar. Arastu vaznsiz ya`ni yalang‘och o‘xshatishni nomi yo‘q deb aytadi, lekin uni biz hozir metafora deb nomlaymiz. Topishmoqlarda kognitiv metafora ustuvor bo‘lib, bu ko‘p jahon va o‘zbek tilshunoslari tomonidan tan olingan nazariyadir.

Tragediya va komediyalarda ham qo‘l harakati, ham ritm, ohang, vaznlardan foydalaniladi, deydi u. Bu hayotda yaxshi va yomon insonlar mavjud bo‘lganidek, predmetlar ham xilma-xildir. Ularning tasviri ham turlichadir.



Aristotel poeziyaning paydo bo‘lishi uchun ikki xil sababni ko‘rsatadi. Birinchisi: o‘xshatish insonlar uchun bolalikdan beri xos bo‘lgan xususiyat. Inson jonli mavjudotlardan o‘xshatish xususiyati bilan farqlanadi. Bir hatto jirkanch hayvonlarga ham zavqlanib boqamiz, chunki ulardan ham nimanidir o‘rganamiz. Oddiy odam bilan olimlarning o‘xshatishida farq bor. Oddiy odamlar narsaga faqat tasvir uchun, to‘g‘rirog‘i tomosha uchun qarasarlar, faylasuflar bilim olish uchun qaraydilar deydi olim. Oddiy odamlar manavi narsa bunday ekan deyish uchun ham har bir narsaga tikilib qaraydilar. Bu inson uchun xos xususiyat deydi faylasuf. Shu o‘rinda, bir narsani ta’kidlab o‘tmoqchiman. 5-sinf adabiyot darsligida yosh bolalar qurtni poyezdga, bulutning xilma-xil shaklda paydo bo‘lishini turli xil jismlarga, jonivorlarga o‘xshatishi yozilgan. Shu fikrlardan kelib chiqib, topishmoqlar yaratilishida metafora ustuvor ekanligini insonning bir narsaning ikkinchi bir narsaga qiyoslashi asosida vujudga kelganligini bemalol ayta olamiz.

Dunyo tilshunosligida topishmoqlarni o‘rgangan olim sifatida A.Taylor va Kyonges-Maranda alohida qayd etiladi. Bundan tashqari, Yevropa folklorida A.Dandes va R.D.Abrahamslar topishmoqlarni o‘rgangan. Keyingi ishlarda ularning nazariyalari haqida ham ma’lumot berib o‘tamiz. Yevropa tilshunosligida R. Petsh, R.George, I.Hemnett, Ch.Skott va boshqa tilshunoslar topishmoqlar bo‘yicha ish olib borganlar.

Ko‘pgina asarlar topishmoqlarning pragmatik xususiyatlari, strukturaviy-semantik masalalarga bag‘ishlangan. Strukturaviy-semantik fanlarni va ushbu matnlarning kommunikativ xususiyatlarini o‘rgangan olimlar: Selivanova, A.Movsivenko, Yu.Levin, E. Kongas-Maranda va V. Mazuriklar o‘z tadqiqotlarini shakl va ma’noning ko‘tarilishi va topishmoq yasashdagi ahamiyati va yechimni tahlil qilgan [14]. Topishmoqlarda antroposentrillik borligi O.Timchenko tomonidan tekshirilgan. Semiotik mexanizmlar orqali obrazli topishmoqlardagi obrazlar tahlil qilindi. A.Jurinskiy, Tomas, professor V.J.Pepikello va A.Greenlar ushbu masala bo‘yicha izlanish olib bordilar [5]. Tegishli e’tibor tilshunoslarning tarkibiy va semantik jihatini hisobga oldi. Bu paremiologik birliklarning fragmentlar sifatida o‘ziga xosligidir.

Ingliz tilshunosligida Kodrasheva va boshqa olimlar ish olib borgan bo‘lsa, rus tilshunosligida esa Vasilyev A, S.Ya.Senderovich, V.G.Sibirsevalar; rus adabiyotida Kolesniskaya I.M, Ribnikova M.Alar xalq og‘zaki ijodi janrlarning biri hisoblanmish topishmoqlarni tadqiq qilishgan.



Qozoqlarning milliy ensiklopediyasida ham atroflicha topishmoqlar berilgan bo‘lib, ular o‘zbek topishmoqlariga o‘xshash [11].

B. Karimov, M.Afzalov, Z.Husainova, M.Abdurahimov kabi olimlar o‘zbek topishmoqlarini o‘rganishga salmoqli hissa qo‘shdilar [20]. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Adabiyot instituti arxivi fondida o‘zbek topishmoqlari bo‘yicha ulkan material to‘plandi [21]. Topishmoqlarni mifologik jihatdan M.Jo‘rayeva tadqiq qilgan [6:68].

O‘zbek tilshunosligida N.Yakubova Jumboqli matnlarning semantik va pragmatik xususiyatlari nomli PhD dissertatsiyasida topishmoqlarni enigmatik jihatdan o‘rgangan va u ishda topishmoqlardagi shaxs, makon, zamon deytigini ajratgan, topishmoqlarni deytik belgilariga ko‘ra turlarga bo‘lgan. “Enigmatik matnla, xususan, topishmoqlar tarkibida deyksining shaxs, zamon va makon kabi turlari uchraydi. Ularda, odatda, deytik birliklar muayyan predmetlar va joylarga ihora qilsa, ayrimlari temporal mazmuni ifodalaydi”, - deydi u. N.Yakubova topishmoqlarni enigmatik, ya‘ni tarkibida jumboq yashiringan matn deb aytadi va bunday matn ichiga krossvordlarni ham kiritadi. “Tarkibida enigma, ya‘ni jumboq yashiringani uchun topishmoq va krossvordlar matnning maxsus tipi yoki enigmatik matn deb qaraladi.”[22]

D.Erkinova esa Topishmoqlarning til xususiyatlari hamda uslubiy tahlili maqolasida xalq og‘zaki janrlaridan biri bo‘lmish topishmoqlardagi metaforalar haqida so‘z ochgan. Topishmoqlarning shu xususiyati haqida qadimgi yunon filosofi Aristotelning: “Juda yaxshi metafora tuzish yo‘li”, deyishi bejiz emas, - deydi u o‘z maqolasida. Topishmoqlarning gap bo‘laklari tahlili bo‘yicha M.Saitboyeva ish qilgan[4].

Topishmoqlarning semantik xususiyatlarini Abdullayev J, M.Saparniyozova [17], N.Usmonova o‘rgangan va u o‘zbek topishmoqlarini fransuz topishmoqlariga qiyosiy ravishda ham tahlil qilgan [9].

Xulosa qilib aytganda, topishmoqlar jahon, rus va o‘zbek folklorshunoslari, adabiyotshunos va tilshunoslari tomonidan o‘rganilgan va aytish mumkinki, har bir o‘rgangan olim topishmoqlarni turli tomondan tadqiq qilganlar va har biri ularning ma‘lum bir qirrasini ochib bergan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayev J. O‘zbek xalq topishmoqlarining leksik-semantik xususiyatlari: Fil. Fanl.nom.diss.Toshkent, 1993.
2. Abrahams R.D., Dandes A. Riddles // Folklore and folklife: The Introduction. University of Chicago Press, 1972.

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



3. Arastu.Poetika. (Ahloqi Kabir. Ritorika). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B. 57
4. Erkinova D. Topishmoqlarning til xususiyatlari hamda uslubiy tahlili. Solution of social problems in management and economy. International scientific-online conference.
5. Green T.A, Pepicello W.J. The Folk Riddle: A Redefinition of Terms // Western folklore/ 1979.Vol. 38, № 300.P..111
6. Juraeva Munis Yunusovna. Traces of mythological imagery in riddles. Current research journal of philological sciences, 2002. 3(06), 67–71. <https://doi.org/10.37547/philological-crjps-03-06-12> More Citation Formats
7. Taylor A. English Riddles from Oral Tradition. Berkley; Los Angeles, 1951.
8. Usmonova N. Topishmoqlarning leksik-semantik xususiyatlari, mavzuviy guruhlash, tipologik tahlil, tez aytishlarning xususiyatlari. Journal of integrated education and research. December, 2022.